

## "Ma'naviyat karvoni" So'xdan start oldi



### "Ma'naviyat karvoni" So'xdan start oldi

Bugun tumanimizning Soybozor massivida mustaqil Vatanimizning 31-yiliga bag'ishlab "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!" ezgu g'oyasi ostidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirning birinchi qismi bo'lib o'tdi. Mazkur tadbir "So'xda ma'naviyat shukhi" mavzusi ostida o'tkazilmoqda.

Tumanning Soybozor mavzesida mehmonlarni kutib olgan tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev ularga So'x va uning ta'rixi haqida ma'lumot berdi. She'r va nazm ila kutib olingan mehmonlar yosh avlodning iste'dodidan bahramand bo'ldilar. Tuman barkamol avlod markazi va tuman bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilari o'z ijod namunalarini mehmonlarga tortiq qilishdi.

O'ZBEKISTON Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi Farg'ona viloyati bo'limi rahbari Ma'sudjon Sulaymonov rahbarligidagi ishchi guruh a'zolari tumanda ikki kun davomida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazadilar. Tuman ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Gulshanjon Ibragimovning ma'lumotiga ko'ra, tumanga viloyatimizning shahar va tumanlari ma'naviyat va ma'rifat markazlari rahbarlari, yozuvchi va shoirlar tashrif buyurishdi.

Nuroniylar choyxonasida tashkil etilgan bir piyola choy ustidagi samimiy so'hbat she'rxonlik va mushoira kechasiga ulanib ketdi. So'zga chiqqanlar istiqloq va uning ne'matlarini tarannum etdilar va mazkur tadbirning ikkinchi qismi ertaga bo'lib o'tadi va ayni damda mazkur tadbir davom etyapti.

### So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-08-06 14:47:18